



SHUKUR XOLMIRZAYEVNING "BUKRI TOL" QISSASIDA PERSONAJLARDA TO'G'RILIK VA EGRILIK IN'IKOSI

Abdurahmonova Gulorom Iskandar qizi

Termiz davlat universiteti 2 - bosqich talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-yanvar 2023 yil

Ma'qullandi: 20-yanvar 2023 yil

Nashr qilindi: 24-yanvar 2023 yil

KEY WORDS

ruhiy tasvir siyratini aks ettirish, zid xarakterlarda o'ziga xoslik, reaksiyalashgan tuyg'ular, yaxshilikdan yomonlikning filtrlanishi, ma'no va mohiyat ustuvorligi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning bukri tol qissasida qahramonning ichki psixologik kechinmalarini obrazlarda ruhiy tasvir siyratini aks ettirish, o'zaro zid xarakterlarda o'ziga xoslik tasviri bilan birga personajlarda reaksiyalashgan tuyg'ular ruhiyatda sintizlashgan yaxshilikdan yomonlikning filtrlanishi kabi bir qator falsafiy muammolar badiiy talqin qilinishi orqali ma'no va mohiyat ustuvorligini yoritib berishga harakat qildim.

Har bir ijodkor xoh u yuzuvchi bo'lsin xoh shoir o'zi anglangan haqiqatni dilida tug'yon urayotgan kechinmalarni insonlarga ishor qilishga urinadi. Haqlik va haqsizlik ham ana shunday tug'yonlardandir. Men maqolamni bekorga bunday boshlamadim. Mumtoz adabiyotimizning nodir namoyondasi Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida to'g'rilik va egrilik, rostgo'ylik va yolg'on kabi tuyg'ular ifoda etilgan. "Navoiyning rostlik, to'g'rilik borasidagi fikrlarini ko'zdan kechirishda, Navoiy borliqda to'g'rilik uchun timsol tanlayotganda unga aks holatda turuvchi egrilik timsollarini ham e'tibordan chetda qoldirmaganiga guvoh bo'ldik. To'g'riligi tufayli doim "sarbali" nayzaga chirmash, egri bo'lgani uchun bo'yni bog'log'liq arqon; so'fiylar marhamatiga erishgan nay timsoliga qulog'i burab sozlanadigan chang; qorong'ilikni munavvar etib "bazzm mahbubasi"ga aylangan shamga egri uchishi tufayli umrning halokatli yakuni nasib etuvchi parvona yoki borliqni yoritisa-da, egriligi uchun yerning tagidan panoh topguvchi yashin; xazon kulfatidan mosuvo doim yashnoq sarv timsoliga chirmash o'sgani tufayli yuzi qaro sunbul va h. k. Mazkur timsollarning barchasi jonli, qiziqarli va shoir badiiy mahoratining yorqin namunasidir".

Xuddi shunday shukur Xolmirzayevning "Bukri tol" asari yoki boshqalarning shu kabi asarlari sassiq, chirkin botqoq ichidan haqiqat atalmish sof gavharni olib turganlardandir. Men Shukur Xolmirzayev asarlariga bag'ishlangan maqollarimda tilga olayotganim savet davri, totalitar tuzum davrida payxon qilingan yerlardek armonga aylangan gaplarini Shukur Xolmirzayev o'z asarlari bilan yuzaga chiqargani to'g'risida ko'p to'xtalganman chunki Shukur Xolmirzayev hukmron kommunistik davr siyosatni yo'qlamaydi, unga ko'r - ko'rona ergashmadi. Aksincha iflosliklardan holi milliy ruh ufurib turgan barxayot asarlar yaratib keladi. Yozuvchi hamisha yo'lg'on, ko'z boylamachiliklarga to'lalilikdan ko'ra achiq bo'lsada yurt uchun manfaatli manaviyatli haqiqatni yuqari qo'yadi.

Xususan uning daslab "To'lqinlar" keyinchalik "Bukri tol" deb nomlangan qissasida ayni

yuqorida aytilgan gaplar o'z aksini to'raligacha topgan. Unga to'g'rilik va egrilik, haq va haqsizlik kabi go'zal timsollar tajallilangan.

Asar "Bukri tol" deb nomlangan. Nimaga aynan bu nom? yana nega u bukri? Ma'lumki agar tol umuman ko'p daraxtlar to'g'ri o'sishsa, parvarish qilinsa to'g'ri va tekis holda o'sadi. Ammo asardagi tolning egriligichi, bu nimaga ishora? Bu shundayki har bir narsaga, eng avvalosi insonga to'g'ri tarbiya berishsa, to'g'ri yo'l ko'rsatilmasa u bukrayadi, adashadi. Asar mazmuni ham ayni shundan iborat.

Qissa kichkina voqea bir yigitning noto'g'ri tarbiya oqibatida boshiga tushgan etiroblar yoritib berilgan. Uning boshqa joyga bormay aynan Raysovezga kelishi, murojaatchilardan pul talab qilishi unga tabiiy xol edi. Yoki O'lmas opa aytganidek ayyorlik qilishi kabilar. U yashayotgan muhitda mutlaqo zid kayfiyatlar bu yerda hukumdor edi. Boshida undan shubhalangan Oyna opa keyinchalik unga ishonib boshlaydi. Balki qizining unga turmushga chiqishiga qarshilik qilmasligiga shu turtki bo'lgandir. Bunga yana bir sabab Ma'murjonning endi rais opaning aytganlarini, tanbehlarini to'g'ri qabul qila boshlaganini to'g'ri o'sayotgani edi. Biroq "Bukrini go'r tuzatar" degan gap ham bor. Mamurjonning oxirgi qilgan ishi bunga yaqqol misol bo'ladi.

Qissa oxirida Ma'murjon soy biqinida o'sgan tolga qoyadan yumalagan xarsang toshning kelib urilgani sababli tolning soyga egilganini ko'radi. Balki shunda o'zining hayoti ham xuddi shu toll ahvolidek ekanini o'ylagandir.

Men bu qissada to'g'rilik va egrilik bilan birga tarbiyaga katta urg'u berilganiga amin bo'ldim. Hamda tarbiyasi bukchaygani sabab yo'llarda oqsoqlangan Ma'murjonning hayoti ekanini va to'g'ri tarbiyada gap ko'p ekanini angladim. Xalqimiz ham bekorga "Dili to'g'rining yo'li to'g'ri, dili qing'irning tili qing'ir" yoki "To'g'ri bo'l tinch yashaysan" kabi maqollarni aytmagan. Biroq bu afsusni men uning hech bir harakatida kuzatmadim. Chunki u olgan, tarbiyalangan qoidalar ongining tub-tubiga muhrlangan ediki, buning natijasida unda faqatgina hayronliknigina ko'rish mumkin edi. O'zi ta'kidlaganidek, qilmishlarini hech o'ylamas, buni xohlamas edi ham. Ma'murjon bir martagina qamoq haqida, qamalishi haqida fikrladi.

Nima bo'lganida ham qissadan hissa chiqarish, inson o'ziga chetdan nazar sola olishi kabilarni yozuvchi ushbu qissasi bilan kitobxonga ibrat qila olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. Qissalar. T. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2016
2. Qozoqboy Yo'ldoshevning Badiiy tahlil asoslari. T.
3. Alisher Navoiy. Xamsa. 1-jild // Hayrat ul-abror. – T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006.
4. Jalolov T. Go'zallik olamida // "Xamsa" talqinlari // "Hayrat ul-abror. T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1979.
5. www.ziyo.net.uz